

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI DSc.17/04.06.2021.T.06.02
RAQAMLI ILMiy KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI NAVOIY BO‘LIMI**

PARDAYEVA SHAHLO SAXIBJONOVNA

**KON KOMPRESSOR USKUNALARINI SOVUTISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

04.00.16 – Konchilik mashinalari

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
of technical sciences**

Pardayeva Shahlo Saxibjonovna

Кон компрессор uskunalarini sovutish tizimini

takomillashtirish.....5

Пардаева Шахло Сахибжонова

Совершенствование системы охлаждения рудничных компрессорных

установок.....23

Pardayeva Shahlo Sakhibjonovna

Improvement of the cooling system of mine compressor

units.....42

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.17/04.06.2021.T.06.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FANLAR AKADEMIYASI NAVOIY BO‘LIMI**

PARDAYEVA SHAHLO SAXIBJONOVNA

**KON KOMPRESSOR USKUNALARINI SOVUTISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

04.00.16 – Konchilik mashinalari

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2025.1.PhD/T5279 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo‘limida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ndki.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djurayev Rustam Umarxanovich
texnika fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Muminov Rashid Olimovich
texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yuldoshov Husniddin Ergashovich
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

«Navoiy kon-metallurgiya kombinati» AJ


Dissertatsiya himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi DSc.17/04.06.2021.T.06.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 28-noyabr soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba Shoh ko‘chasi 76v-uy. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti majlislar zali. Tel.: (79) 223-04-40; faks: (79) 223-49-66; e-mail: info@nsmtu.uz, nsmi@gmail.com.


Dissertatsiya bilan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (237-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba Shoh ko‘chasi, 76v -uy. Tel.: (79) 223-56-90; faks: (79) 223-00-55.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «13» noyabr kuni tarqatilgan.
(2025 yil «13» noyabr 162 raqamli reestr bayonnomasi).




I.T.Mislibayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, t.f.d., professor


I.P.Egamberdiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi v.b., t.f.d., professor


N.A.Abdouazizov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
goshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda foydali qazilmalarni qazib olishning texnologik jarayonlarida, siqilgan havo energiya tashuvchi funksiyasini bajarish kon mashinalarining va boshqa pnevmatik energiya iste'molchilarining ekspluatatsiya ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir qiladi. Konchilik sohasida kon kompressorlarining ekspluatatsiyasi davomida resurs va energiya sarflarini tejash orqali siqilgan havo ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Porshenli kompressorning ekspluatatsiya samaradorligining katta hissi uning sovutish tizimi ishiga bog'liq bo'lib, ularning ko'rsatkichlarini yaxshilash siqilgan havo ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Siqilgan havoning keng qo'llanilishi sanoat korxonalarida siqilgan havoni ishlab chiqarish jarayonida samarali yechimlarni ishlab chiqish va kompressor uskunalari ekspluatatsiyasining energiya samaradorligini oshirish orqali ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda kon porshenli kompressor uskunalaridan samarali foydalanish, kompressorlar ishiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, sovutish tizimi ishini kompressor samaradorligiga ta'sirini tadqiq qilish va kompressorda siqilayotgan havoni oraliq va so'nggi sovutgichlarda sovutishda energiya tejamkorligining samarali texnik yechimlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada siqilgan havoning sovutilganlik sifatini kompressor uskunasi samaradorligiga ta'sirini o'rganish, sovutish tizimini takomillashtirish asosida kompressor uskunalarining ish samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda foydali qazilmalarni qazib olish ishlarini jadallashtirish, kon kompressor uskunalarining ekspluatatsiya ko'rsatkichlarini oshiruvchi samarali usullarni tadqiq qilish, kompressorning energiya va resurs sarflarini kamaytirish bo'yicha ilg'or ilmiy asoslangan chora-tadbirlar joriy qilinib, bir qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonida¹ «ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga qaratilgan sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazish orqali sanoatni yanada modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, prinsipial jihatdan yangi texnologiya turlarini o'zlashtirish, energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish...» kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, kon kompressor uskunalarining samaradorligini oshirish va siqilgan havo ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi, 2015-yil 4-martdagi PF-4707-son «Ishlab chiqarishni strukturaviy qayta tuzish, modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni ta'minlash bo'yicha 2015-2019-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi Farmonlari va 2019-yil 17-yanvardagi PQ-4124-son «Kon-metallurgiya tarmog'i korxonalarini faoliyatini yanada

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyasini rivojlantirishning VII. «Yer to'g'risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyolarni qayta ishlash)» ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kompresor uskunalaridan samarali foydalanish nazariyasi va amaliyotini rivojlanishiga M.I. Frenkel, P.I. Plastinin, A.V. Dokukin, V.A. Murzin, Yu.A. Seytlin, M.V. Merkulov, R.U. Djurayev, B.S. Fotin, N.G. Kartaviy, V.A. Durov, A.P. Frolov, Yu.N. Minyayev, D.L. Garbuz, A.P. German, A.S. Ilichev, A.P. Grishko, G. Lemasson, J. Lefebvre, P. Bloch. Heinz, K. Geitner. Fred, A.G. Stapel va boshqalar katta hissa qo'shishgan, ular tomonidan kon kompressor uskunalarini samaradorligini oshirish va energiya sarfini kamaytirish bilan bog'liq katta natijalarga erishilgan. Biroq bugungi kunda sovutish tizimini takomillashtirish asosida kon kompressor uskunalarining samaradorligini oshirish, siqilgan havoning sovutilganlik darajasini kompressor uskunasi samaradorligi va energiya sarfiga ta'siri to'liq tadqiq qilinmagan.

Shu munosabat bilan konchilik sanoati uchun muhim bo'lgan kon kompressor uskunalarining sovutish tizimini o'rganish va energiya samaradorligini oshirish zaruriyati yuzaga keladi va bu yo'nalishda keyingi tadqiqotlarni davom ettirish lozim.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat konchilik instituti ilmiy-tadqiqot rejasining YoBV-Atex-2018-22-son «Skvajinalarni havo yordamida burg'ilashning samaradorligini oshirish uchun resurs tejankor texnologiyalarni ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sovutish tizimini takomillashtirish asosida kon kompressor uskunalarining ekspluatatsion samaradorligini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

porshenli kompressor uskunalarining sovutish tizimi samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari va holatining tahlili;

kompressor gradirnyali sovutkichining suv purkash forsunkasida sachratilayotgan suvning sovush jarayonining matematik modelini ishlab chiqish;

porshenli kompressorlarning oraliq havo sovutkichlari issiqlik almashinuvi yuzalarida qurum hosil bo'lishining sovutilish samaradorligiga ta'sirining matematik modelini ishlab chiqish;

gradirnyali sovutkich samaradorligini oshiruvchi texnik yechimlarni ishlab chiqish;

kompressorlarning oraliq va so'nggi sovutkichlarida qurum hosil bo'lishini bartaraf etuvchi qurilma konstruksiyasini yaratish;

taklif etilgan texnik yechimlarni qo'llashning iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obykti sifatida kompressorlarning havo sovutkichlari metal yuzalarida qurum hosil bo'lishi jarayonlari va kon kompressorlarining energiya samarador ekspluatatsiyasi olingan.

Tadqiqotning predmetini kon kompressorlarining sovutish tizimi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida kon kompressor uskunalarning sovutish tizimini takomillashtirishda nazariy va eksperimental usullar, laboratoriya va sanoat sharoitida eksperimental tadqiqotlar, kompressor uskunalarning ishchi jarayonlarini matematik modellashtirish va matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kompressorning gradirnyali sovutkichida purkalanayotgan suvning sovutilish samaradorligiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni hisoblash imkonini beruvchi matematik model yaratilgan;

ishlab chiqilgan gradirnyali sovutkichning uyurmali suv purkash forsunkasining suvni samarali sovutilishi uyurmali forsunka kuraklarining joylashuv burchaklari va radiusiga bog'liqligi o'rnatilgan hamda uyurmali forsunkaning optimal konstruktiv parametrlari aniqlangan;

porshenli kompressorlarning oraliq havo sovutkichlari issiqlik almashinuvi yuzalarida hosil bo'ladigan qurum qalinligining issiqlik almashinuvi jarayoniga salbiy ta'siri kattaliklarini hisoblash imkonini beruvchi matematik modeli ishlab chiqilgan;

kompressorning oraliq va so'nggi havo sovutkichini metall quvurlari ichki yuzalaridan qurumni samarali tozalashda ultratovushli akustik qurilma hosil qiladigan tebranishlar amplitudasi chastotasi va impulslar davomiyligining optimal kattaliklari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kompressorni sovutuvchi aylanma suvning haroratini bazaviy forsunkaga nisbatan 6°C gacha yaxshi sovutish imkonini beruvchi uyurmali suv purkash forsunkasi ishlab chiqilgan;

kompressor havo sovutgichlarining issiqlik almashinuvi uskunalari yuzalarida qurum ko'rinishidagi ifloslovchi qatlamlarni tozalash va ularning hosil bo'lishini bartaraf etish imkonini beruvchi ultratovush qurilmasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi keng miqyosdagi laboratoriya va sanoat sharoitidagi tajribalar, kon kompressor uskunalarning ekspluatatsiyasini energiya samarador usullarini ishlab chiqishda ishning asosiy g'oyasining miqdoriy ko'rsatkichlari va qoniqarli darajada muvofiqligi, shuningdek, kon kompressor uskunalarning ekspluatatsiyasining samaradorligini oshirish maqsadida sovutish tizimining ishini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan texnik yechimlarning eksperimental sinovlarining ijobiy natijalari bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati siqilgan havoning sovutilganlik darajasining kompressor uskunasi samaradorligiga ta'sirini tadqiq qilish, ko'p pog'onali porshenli kompressorlarning sovutish tizimi ishini matematik modellashtirish va sovutish tizimini takomillashtirish asosida kon kompressor uskunalarning samaradorligini oshirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kompressorning gradirnyali sovutgichining suv purkovchi forsunkalarining yangi konstruksiyasi hamda oraliq va so'nggi havo sovutkichlar issiqlik almashinuvi yuzalarida qurum hosil bo'lishini bartaraf etuvchi ultratovush qurilmasini ishlab chiqish, kompressor uskunalari ekspluatatsiyasining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sovutish tizimini takomillashtirish natijasida kon kompressor uskunalarning samaradorligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Kompressor gradirnyali sovutgichining suv taqsimlash moslamasidagi suv purkash forsunkasi «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ «Angren» kon boshqarmasi «Qizil olma» konining kompressor stansiyasida amaliyotga joriy etilgan («Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ ning 2023-yil 12-dekabrda 12-23/61-2894-son ma'lumotnomasi). Natijada suv purkash forsunkasining ishchanligi va samaradorligi oshganligi aniqlandi hamda sovutuvchi aylanma suvning haroratini bazaviy forsunkaga nisbatan 6°C gacha yaxshi sovutish imkonini bergan;

Kompressor havo sovutgichlarining issiqlik almashinuvi uskunalari yuzalarida qurum ko'rinishidagi ifloslovchi qatlamlarni tozalash va ularni hosil bo'lishini bartaraf etish imkonini beruvchi ultratovush qurilmasi «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ «Angren» kon boshqarmasi «Qizil olma» konining kompressor stansiyasida amaliyotga joriy etilgan («Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ ning 2023-yil 12-dekabrda 12-23/61-2894-son ma'lumotnomasi). Natijada havo sovutgichlarida qurum hosil bo'lishini 95% gacha kamaytirishga hamda kompressorning kutilmagan to'xtalishlar sonini 35% gacha kamaytirishga va oraliq sovutgichda siqilgan havoning samarali sovutilishi evaziga kompressorning havo siqish uchun sarflanadigan energiya sarfini 2% gacha kamaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqotning natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda aprotatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan, Respublika nashrlarida 4 ta va xorijiy jurnallarda 2 ta maqola nashr etilgan va EHM uchun kompyuter dasturiy mahsulotiga 2 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning ahamiyati va dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Kon kompressor uskunalarning ekspluatatsiyasining xususiyatlari va zamonaviy holatining tahlili**» deb nomlangan birinchi bobida kompressor uskunalarning konchilik sanoatida qo'llanilishi, porshenli kompressor uskunalarning sovutish tizimi ishining tahlili, dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar holatining tahlili hamda porshenli kompressor uskunalarning ishini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarining zamonaviy holati va muammoning yuzaga kelishi sabablari keltirilgan.

Porshenli kompressor uskunalarining sovutish tizimida qo'llaniladigan gradirnyali sovutkichlar sovutuvchi aylanma suv haroratini 18-20 °C gacha pasaytirishi talab etiladi, ammo yoz mavsumida atrof-muhit haroratining keskin ortib ketishi, gradirnyali sovutkichlar konstruksiyasining eskirishi, kompressorlar ish tartiblarining o'zgarishi, kompressorga tushadigan yuklamalarning ortib ketishi natijasida gradirnyali sovutkichlar sovutuvchi suv haroratini talab darajasigacha pasaytira olmaydi va haqiqatda aylanma suvning harorati 24-26°C ni tashkil etadi, bu esa o'z navbatida, kompressor ekspluatatsiyasi davomida bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.


Ko'p pog'onali porshenli kompressorlarning birinchi bosqichidan ikkinchi bosqichiga uzatilayotgan siqilgan havoni oraliq sovutkichlarda haroratini yaxshi pasaytirmaslik kompressorning havo siqishga sarflaydigan energiya sarfining oshib ketishiga olib keladi. Oraliq sovutkichda havo haroratining har 6°C ga ortishi, havo siqishga sarflanadigan energiya sarfini 1% ga orttiradi. Oraliq sovutkichlarning ishining yomonlashuviga olib keluvchi asosiy sabablardan biri bu, ularning issiqlik almashinuvi yuzalarida qurum hosil bo'lishi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning «**Porshenli kompressor uskunalarining sovutish tizimi ishini matematik modellashtirish**» deb nomlangan ikkinchi bobida Kompressorning gradirnyali sovutkichining suv purkash forsunkasida sachratilayotgan suvning sovush jarayonining matematik modeli hamda porshenli kompressorlarning oraliq havo sovutkichlari issiqlik almashinuvi yuzalarida qurum hosil bo'lishining sovutilish samaradorligiga ta'sirining matematik modeli ishlab chiqilgan.


Gradirnyali sovutkichlarda aylanma suvni sovutish jarayoniga salbiy ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va sovutish jarayonini yaxshilash imkoniyatlarini aniqlash maqsadida forsunkada sachratilayotgan suvning sovush jarayonlari matematik modellashtirildi.

Maksimal tomchi sirtini ta'minlash, suyuqlikni minimal o'lchamdagi tomchilarga bo'lish vazifasi purkovchi forsunka elementlarining geometrik parametriga bog'liq. Purkash burchagini aniqlash uchun, odatda, to'rtta muhim parametr qo'llaniladi: purkash burchagi, haqiqiy purkash sohasi, samarali purkash burchagi, nazariy purkash sohasi.

Suvning purkalish davomida ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ko'rib chiqamiz, 1 va 2-rasmlarda suvni forsunkada purkash davomida sovutilish samaradorligiga ta'sir etuvchi kursatkichlar hamda suv tomchisining havo muhitidagi harakat trayektoriyasi keltirilgan. Bundan kelib chiqib, suv haroratining o'zgarishi $h, 2\alpha, R$ parametrlariga bog'liqligini o'rnatamiz, ya'ni $T = f(h, 2\alpha, R)$ funksiyalar yaratishimiz kerak.



1-rasm. Suvning purkash jarayonida sovitilishga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar



2- rasm. Suv tomchisining havo muhitidagi harakat trayektoriyasi

Suv tomchisining forsunka uchidan yergacha tushishda geometrik kattaliklarni dinamikaning 2-masalasi orqali ifodalaymiz.

Kuchlar sistemasi:

$$\begin{cases} \sum F_z = G_t - F_q \cdot \sin(90 - \gamma); \\ \sum F_x = -F_q \cdot \cos(90 - \gamma); \end{cases} \quad (1)$$

bu yerda G_t – suyuqlik tomchisining og'irlik kuchi, N ; F_q – havoning qarshilik kuchi, N ; γ – suyuqlikning harakat yo'nalishidagi burchagi, grad.

$$\begin{cases} \frac{mdv_z}{dt} = mg - \frac{1}{2} \cdot C_x \cdot \rho_{havo} \cdot v_h^2 \cdot S_t \cdot \sin(90 - \gamma); \\ \frac{mdv_x}{dt} = -\frac{1}{2} \cdot C_x \cdot \rho_{havo} \cdot v_h^2 \cdot S_t \cdot \cos(90 - \gamma); \end{cases} \quad (2)$$

bu yerda m -suv tomchisining massasi, g ; v_z va v_x – suyuqlikning z va x o'qlaridagi tezliklar proyeksiyasi, C_x -aerodinamik qarshilik koeffitsiyenti (tomchining sferik shakli uchun $C_x = 0,5$), ρ_{havo} – havoning zichligi, kg/m^3 , v_h – havoning tezligi, m/s ; t – suv tomchisining tushish vaqti, *sek*; C_1 va C_2 – integral ozod hadlari; S_t – suv tomchisining kesim yuzasi, mm^2 .

Tomchining koordinata o'qlaridagi harakati tezliklari quyidagicha ifoda qilinadi:

$$v_x = v_0 \cdot \sin \gamma - \frac{1}{2m} \cdot C_x \cdot \rho_{havo} \cdot v_h^2 \cdot S_t \cdot \cos(90 - \gamma) \cdot t; \quad (3)$$

$$v_z = v_0 \cdot \cos \gamma + g - \frac{1}{2m} \cdot C_x \cdot \rho_{havo} \cdot v_h^2 \cdot S_t \cdot \sin(90 - \gamma) \cdot t. \quad (4)$$

bu yerda g – erkin tushishning tezlanishi, m/s^2 .

Tomchining haqiqiy tezligini $v = \sqrt{v_x^2 + v_z^2}$ hisobga olib, koordinata o'qlaridagi harakat tenglamasini quyidagicha ifoda qilamiz:

$$\begin{cases} x = t \cdot \left(v_0 \cdot \sin \gamma - \frac{1}{2m} \cdot C_x \cdot \rho_{havo} \cdot v_h^2 \cdot S_t \cdot \cos(90 - \gamma) \cdot \frac{t}{2} \right) \\ z = t \cdot \left(v_0 \cdot \cos \gamma + g - \frac{1}{2m} \cdot C_x \cdot \rho_{havo} \cdot v_h^2 \cdot S_t \cdot \sin(90 - \gamma) \cdot \frac{t}{2} \right) \end{cases}; \quad (5)$$

Agar $x = R$ va $z = h$ deb qarash, yuqoridagi (5) tenglama quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{cases} R = t \cdot \left(v_0 \cdot \sin \gamma - \frac{1}{2m} \cdot C_x \cdot \rho_{havo} \cdot v_h^2 \cdot S_t \cdot \cos(90 - \gamma) \cdot \frac{t}{2} \right) \\ h = t \cdot \left(v_0 \cdot \cos \gamma + g - \frac{1}{2m} \cdot C_x \cdot \rho_{havo} \cdot v_h^2 \cdot S_t \cdot \sin(90 - \gamma) \cdot \frac{t}{2} \right) \end{cases}, \quad (6)$$

bu yerda z va x – suyuqlikning koordinatalar bo‘yicha bosib o‘tgan masofasi, m ; R – fakelning radiusi, m ; h - fakelning balandligi, m .

Forsunka tirqish diametri orqali vaqt birligida otilib chiqayotgan suv hajmi Bernulli tenglamasiga asosan:

$$\int dV_{suv} = \int \pi \cdot r^2 \cdot v \cdot dt = \pi \cdot r_t^2 \cdot v \cdot t, \quad (7)$$

bu yerda r – forsunka tirqishi diametri, m .

Havoning massasi (m_{havo}) quyidagicha ifodalanadi:

$$m_{havo} = \rho_{havo} \cdot V_{havo} = \rho_{havo} \cdot \frac{1}{3} \cdot \pi \cdot r_t^2 \cdot L; \quad (8)$$

$$\tan \gamma = \frac{r_t^2}{L}. \quad (9)$$

suv tomchisining radiusini r_t (9) ifoda orqali aniqlaymiz:

$$r_t^2 = L \cdot \tan \gamma. \quad (10)$$

Suv tomchisining radiusini hisobga olib, havoning massasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$m_{havo} = \rho_{havo} \cdot \frac{1}{3} \cdot \pi \cdot L^2 \cdot (\tan \gamma)^2 \cdot L = \rho_{havo} \cdot \frac{1}{3} \cdot \pi \cdot L^3 \cdot (\tan \gamma)^2; \quad (11)$$

Agar suv tomchising tushish tezligini (v) quyidagi ko‘rinishda ifodalasak,

$$v = \frac{l}{t} = \frac{\sqrt{L^2 + \left(\frac{r_t}{4}\right)^2}}{t} = \frac{\sqrt{4 \cdot L^2 + L^2 \cdot (\tan \gamma)^2}}{2 \cdot t}, \quad (12)$$


quyidagi tenglama kelib chiqadi:

$$\begin{aligned} \frac{1}{2} \cdot \rho_{suv} \cdot r_t^2 \cdot \frac{2}{\cos \gamma} \cdot T_0 + \rho_{havo} \cdot \frac{1}{3} \cdot L^2 \cdot (\tan \gamma)^2 \cdot T_h = \\ = T_x \cdot \left(\rho_{havo} \cdot \frac{1}{3} \cdot L^2 \cdot (\tan \gamma)^2 + \rho_{suv} \cdot r_t^2 \cdot \frac{1}{\cos \gamma} \right). \end{aligned} \quad (13)$$


suvning sovush haroratini (T_x) (13) tenglama orqali quyidagicha ifodalaymiz:

$$T_x = \frac{\frac{1}{2} \rho_{suv} \cdot r_t^2 \cdot \frac{2}{\cos \gamma} \cdot T_0 + \rho_{havo} \cdot \frac{1}{3} \cdot L^2 \cdot (\tan \gamma)^2 \cdot T_h}{\left(\rho_{havo} \cdot \frac{1}{3} \cdot L^2 \cdot (\tan \gamma)^2 + \rho_{suv} \cdot r_t^2 \cdot \frac{1}{\cos \gamma} \right)}; \quad (14)$$

Yuqoridagi (14) ifodadan kelib chiqqan holda haroratni tomchining radiusiga $T_x(r_t)$ hamda uning bosib o‘tgan yo‘lining uzunligiga $T_x(L)$ bog‘lagan holda haroratning suv tomchisiga va suv tomchisi bosib o‘tgan yo‘lining uzunligiga bog‘liqliklarni keltirishimiz mumkin, ushbu bog‘liqliklar 3 va 4-rasmlarda grafik ko‘rinishida keltirilgan.



3-rasm. Purkanalayotgan suv haroratining tomchi radiusiga bog‘liqligi



4- rasm. Purkanalayotgan suv haroratining tomchining tushish balandligiga bog‘liqligi

Yuqoridagi (14) ifodadan va 3 va 4-rasmlarda keltirilgan grafiklardan kelib chiqib shu isbotlandiki, gradirnyada purkalanayotgan suvning sovutilish samaradorligi suv tomchisining radiusiga va tushish balandligiga, ya'ni bosib o'tgan yo'lining uzunligiga bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan matematik model forsunkada sachratilayotgan suvning samarali sovutilishiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni aniqlash imkonini berdi. Gradirnyada suv sovutilishining samaradorligini oshiruvchi forsunka konstruksiyasini yaratishda, suvni purkash jarayonida suvni mayda zarralarga ajratishi, tomchilarini kichik hajmgacha parchalashi va tomchi tushish uzunligining oshishi hisobga olinishi kerak.

Kompressorning oraliq va so'nggi havo sovutkichlari suv bilan sovutiladi, suvning qattiqligi yuqoriligi va haroratining oshib ketishi issiqlik almashinuvi jarayonini yomonlashtiradi, bu esa o'z navbatida, siqilayotgan havoning sovutilishini yomonlashtiradi va kompressorning samaradorligiga salbiy ta'sir etadi.

Havo sovutkichi quvurlarida issiqlik r_1 ichki yuzadan r_2 tashqi sirtga o'tkaziladi, harorat o'q bo'ylab emas, balki radius bo'ylab o'zgarishini hisobga olish kerak. Shuning uchun silindrsimon shakl uchun issiqlik oqimining zichligini, asosan, radius orqali bog'laymiz.

$$q = -\lambda \cdot \frac{dT}{dr}. \quad (15)$$

Issiqlik uzatish tenglamasi:

$$Q = q \cdot F = -\lambda \cdot \frac{dT}{dr} \cdot F, \quad (16)$$

bu yerda F – ko'rib chiqilayotgan yuza, m^2 .

Bundan kelib chiqib, silindr sohasining yuzasi quyidagicha bo'ladi:

$$F = 2 \cdot \pi \cdot r \cdot L, \quad (17)$$

bu yerda r – quvur radiusi, m ; L – quvur uzunligi, m .

Yuqoridagi issiqlik uzatish tenglamasini radius bo'yicha integrallasak, quyidagi tenglama hosil bo'ladi:

$$Q = \int_{r_1}^{r_2} -\lambda \cdot \frac{dT}{dr} \cdot 2 \cdot \pi \cdot r \cdot L \cdot dr; \quad (18)$$

Harorat gradiyentini esa quyidagicha yozish mumkin:


$$\frac{dT}{dx} = \frac{T_1 - T_2}{\ln\left(\frac{r_2}{r_1}\right)}. \quad (19)$$

Integrallash natijasida issiqlik uzatish tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$Q = \lambda \cdot 2 \cdot \pi \cdot L \cdot \frac{T_1 - T_2}{\ln\left(\frac{\delta_{q,q}}{r_1}\right)}, \quad (20)$$

bu yerda T_1 – quvur ichidagi suyuqlikning harorati, °C; T_2 – quvur tashqi qismidagi siqilgan havoning harorati, °C; r_1 – quvurning ichki radiusi, m ; $\delta_{q,q}$ – quvur ichki devorlarida hosil bo'lgan qurum qatlaminin qalinligi, m .

Agar qurum quvur devorlarining ichki qismida hosil bo'lsa, u holda issiqlik almashinuvi 2 ta qatlam orqali amalga oshiriladi. Bunda birinchi navbatda, quvur materiali orqali, keyin esa quvurning ichki qismida hosil bo'lgan qurum orqali amalga oshadi. Quvur ichki devorlarida qurum hosil bo'lishining issiqlik almashinuvi jarayoniga ta'siri 5-rasmda keltirilgan.



5 – rasm. Quvur ichki devorlarida qurum hosil bo‘lganini issiqlik almashinuvi jarayoniga ta’siri

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda issiqlik uzatish tenglamasi quyidagicha bo‘ladi:

$$Q = \frac{2 \cdot \pi \cdot L \cdot (T_1 - T_2)}{\left(\frac{\ln\left(\frac{\delta_{q.q}}{r_1}\right) \ln\left(\frac{r_3}{\delta_{q.q}}\right)}{\lambda_{qurum} + \lambda_{metall}} \right)}; \quad (21)$$

bu yerda r_3 – quvurning tashqi radiusi, m;

Agar issiqlik almashinuvi qurum hamda metall quvur orqali kechadigan bo‘lsa, u holda issiqlik balansi quyidagicha bo‘ladi:

$$Q_{qurum} = \frac{2 \cdot \pi \cdot L \cdot \lambda_{qurum} \cdot (T_1 - T_x)}{\ln\left(\frac{\delta_{q.q}}{r_1}\right)}; \quad (22)$$

bu yerda λ_{qurum} – qurumning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti, Vt/m K; $T_1 - T_x$ – issiqlik uzatuvchi va qurumning tashqi yuzasi o‘rtasidagi haroratlar farqi.

Hosil bo‘lgan qurumning qalinligini hisobga olgan holda, quvurning issiqlik uzatish tenglamasini quyidagicha ifodalaymiz:

$$Q_{metall} = \frac{2 \cdot \pi \cdot L \cdot \lambda_{metall} \cdot (T_x - T_2)}{\ln\left(\frac{r_3}{\delta_{q.q}}\right)}; \quad (23)$$

bu yerda λ_{metall} – metall quvurning issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsiyenti, Vt/m K; r_3 – quvurning tashqi radiusi, m; $T_x - T_2$ – quvurning ichki hamda tashqi yuzalari o‘rtasidagi haroratlar farqi.

Issiqlik uzatish tenglamasi quyidagicha:

$$Q_{qurum} = Q_{metall}; \quad (24)$$

Issiqlik balansi va quvurning issiqlik uzatish tenglamasini inobatga olib, tenglamalarni soddalashtirsak, quyidagi tenglama hosil bo‘ladi:


$$\begin{aligned} \lambda_{qurum} \cdot T_1 \cdot \ln\left(\frac{r_3}{\delta_{q.q}}\right) + \lambda_{metall} \cdot T_2 \cdot \ln\left(\frac{\delta_{q.q}}{r_1}\right) &= \\ = \lambda_{metall} \cdot T_x \cdot \ln\left(\frac{\delta_{q.q}}{r_1}\right) + \lambda_{qurum} \cdot T_x \cdot \ln\left(\frac{r_3}{\delta_{q.q}}\right); \end{aligned} \quad (25)$$

Shunda, quvurda hosil bo‘lgan qurum natijasida yuzaga keladigan harorat farqini (T_x) quyidagi ifoda orqali aniqlaymiz:

$$T_x = \frac{\lambda_{qurum} \cdot T_1 \cdot \ln\left(\frac{r_3}{\delta_{q.q}}\right) + \lambda_{metall} \cdot T_2 \cdot \ln\left(\frac{\delta_{q.q}}{r_1}\right)}{\lambda_{metall} \cdot \ln\left(\frac{\delta_{q.q}}{r_1}\right) + \lambda_{qurum} \cdot \ln\left(\frac{r_3}{\delta_{q.q}}\right)}; \quad (26)$$

Ifoda havo sovutkich quvurlari yuzalarida qurum qatlaminin qalinligi ortishining issiqlik almashinuvi jarayoniga ta’sirini aniqlash imkonini beradi.

Quyida 6-rasmda qurum qatlami qalinligi ortishining issiqlik almashinuvi jarayonida haroratlar farqiga ta’siri (26) ifoda orqali hisoblanganda, qurum qatlami qalinligining haroratlar farqiga bog‘liqligi keltirilgan.



6-rasm. Qurum qatlami qalinligining issiqlik almashinuvi jarayonida haroratlar farqiga bog'liqligi

Oraliq va so'nggi havo sovutkich quvurlari ichki yuzalarida qurum hosil bo'lishi va ushbu qurumning qalinligi issiqlik almashinuvi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Harorat farqining quvurning ichki devorlarida hosil bo'lgan qurum qatlami qalinligiga $T_x = f(\delta_{q.q})$ bog'liqlik grafigidan ko'rinib turibdiki, qurumning qatlami ortishi natijasida qalinlik ($\delta_{q.q}$) oshganda harorat farqi (T_x) keskin kamayadi, bu esa o'z navbatida, siqilgan havoning haroratini (T_1) oshirishga olib keladi.

Dissertatsiyaning «**Suv purkovchi forsunkalarning konstruksiyasini takomillashtirish evaziga kompressor uskunalarning gradirnyali sovutkichlarining samaradorligini oshirish**» deb nomlangan uchinchi bobida kompressor uskunalarning gradirnyali sovutkichlarining ishlashi va ularga qo'yiladigan talablar tahlili qilingan, gradirnyali sovutkich samaradorligini oshiruvchi texnik yechimlarni ishlab chiqilgan, takomillashtirilgan suv purkovchi forsunka konstruksiyasining tajriba-sinovlari va ularning natijalari keltirilgan.

Bugungi kunda gradirnyali sovutkichlarning qoniqarsiz ishiga asosiy sabablardan biri, suv purkash forsunkasida suvning yaxshi purkalmasligi hisoblanadi, ya'ni suvni purkagan vaqtida tomchilar hajmi katta yoki suv plenka hosil qilishi natijasida havo bilan kontakti kamayadi va sovush darajasi yomonlashadi, gradirnyada sovutilayotgan suvning 1% bug'ga aylanadigan bo'lsa, sovutiladigan suvning harorati 5-6°Cga pasayadi. Quyida 3-rasmda gradirnyaning suv purkash forsunkasining qoniqarsiz (a) va qoniqarli (b) ishining rasmi keltirilgan.



a




b

a-forsunkaning qoniqarsiz ishi; b-forsunkaning qoniqarli ishi.

3-rasm. Gradirnyaning suv purkash forsunkalari

Gradirnyali sovutkichlarda suvni sovutish samaradorligi, forsunkalarda sachratilayotgan suvning mash'ali kengligi, suvning mayda tomchilarga parchalanishi va havo bilan kontaktining ortishiga bog'liqligini hisobga olgan holda, suv sachratuvchi forsunkaning yangi konstruksiyasi ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan gradirnyali sovutkichlarning suv sachratish forsunkasining yangi konstruksiyasi quyida 4-rasmda keltirilgan.



H – forsunkaning umumiy uzunligi (mm);
 D – forsunka ulanish quvurining diametri (mm); L – forsunka suv sachratish organining uzunligi (mm); R_1, R_2, R_3 – uyurmali suv sachratkichi kuraklarining radiusi (mm); α, β, γ – uyurmali suv sachratkichi kuraklarining joylashuv burchaklari.

4-rasm. Ishlab chiqilgan uyurmali forsunka

Taklif etilgan ushbu forsunkaning konstruksiyasi, suvning keng radiusda sachratilishini va bir paytning o'zida suv mayda tomchilarga parchalash imkonini beradi. Shuningdek, ushbu konstruksiya, suvning forsunkadan chiqishida suv plenkasini hosil qilmaydi va natijada havo va suv parchalarining issiqlik almashinuvini yaxshilaydi.

Uyurmali forsunkada suv sachratish samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy konstruktiv parametrlari kuraklarining radiusi va uyurmali suv sachratkichi kuraklarining joylashuv burchaklari bo'lganligi sababli, ushbu ko'rsatkichlarning har xil kattaliklarida forsunka yasab olindi va tajribada sinaldi, tajriba-sinovlaridan o'tkazilgan forsunkalar kuraklarining radiusi va uyurmali suv sachratkichining kuraklarining joylashuv burchaklari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan kattaliklarda olindi.


1-Jadval.

No	L (mm)	R_1 (mm)	R_2 (mm)	R_3 (mm)	α (grad)	β (grad)	γ (grad)
1	58,3	26,7	16,2	8,3	56,4	27,2	11,4
2	58,3	28,1	17,2	8,72	59,3	28,6	12,0
3	58,3	30,2	18,3	9,38	63,7	30,7	12,9
4	58,3	31,2	19,3	10,2	64	32	13,8

Suv sachratuvchi forsunkada sachratilayotgan suvning plenkasi uzunligini hamda sovush haroratini aniqlash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari quyida 5 va 6-rasmlarda grafik ko'rinishida keltirilgan.




5-rasm. Forsunkada sachratilayotgan suvning plenkasi uzunligining forsunkaning konstruktiv parametrlariga bog'liqligi




6-rasm. Sachratilayotgan suv haroratining forsunkaning konstruktiv parametrlariga bog'liqligi

Uyurmali suv sachratkichi kuraklarining joylashuv burchaklari $\alpha=56,4$; $\beta=27,2$; $\gamma=11,4$ gradus bo'lganida, sachratilayotgan suvning hosil qilgan plenkasi eng kichik uzunlikni qayd etdi va shuningdek, suvning eng yaxshi sovutilishiga ham erishildi.

Ishlab chiqilgan uyurmali forsunkada mash'al hosil bo'lishi va sachratilgan suv haroratining o'zgarishi dasturiy ta'minot orqali ham tadqiq qilindi, natijalar 7 va 8-rasmlarda keltirilgan.



7-rasm. Forsunkada mash'al hosil bo'lishi



8-rasm. Forsunkada sachratilgan suv haroratining o'zgarishi.

Uyurmali forsunkada sovutilayotgan suvning harorati taqqoslanganda, boshqa forsunkalarga nisbatan 3-4°Cga pastligi kuzatildi, yuqorida o'tkazilgan eksperimentlarning natijalari asosida shu aniqlandiki, taklif etilayotgan uyurmali forsunkaning konstruksiyasi suv sachratish jarayonida suv plenkasini hosil qilmaydi, suvni sachratish jarayonida tomchilarni mayda zarrachalarga ajratish jarayonini yaxshilaydi. Shuningdek, suv zarrachalari uyurmali harakatining evaziga tomchilar va havo kontaktini yaxshilaydi natijada esa boshqa konstruksiyadagi forsunkalarga nisbatan suvning sovutish samaradorligi yuqoriroq bo'ladi.

Shunday qilib, suv purkovchi forsunkalarning konstruksiyasini takomillashtirish evaziga kompressor uskunalarning gradirnyali sovutkichlarning samaradorligini oshirish borasida olib borilgan tadqiqotlar natijasida gradirnyali sovutkichlarda suvni sovutish jarayonida sachratilayotgan suvning mash'ali kengligi, suvning mayda tomchilarga parchalanishi va havo bilan kontaktining yaxshi ta'minlanish imkonini beruvchi, suv sachratuvchi forsunkaning yangi konstruksiyasi ishlab chiqildi va suvning samarali sovutilishi uyurmali forsunka kuraklarining joylashuv burchaklari va radiusiga bog'liqligi o'rnatilgan hamda uyurmali forsunkaning optimal konstruktiv parametrlari aniqlandi.

